

**Davronova Sevinch Sobit qizi**

*Samarqand Viloyati Pstdarg'om Tumani Samdu Akademik Litseyi O'quvchisi*

**Annatsiya:** *Ushbu maqolada zamburug'lar haqida, zamburug'larning organik olamga ta'siri, zamburug'larning turli xil zonalarda tarqalishi, zamburug'larning oziqlanishi va ko'payishi haqida so'z yuritiladi. Maqola zamburug' turlari va tabiatdagi ahamiyati haqida yoziladi.*

**Kalit so'zlar:** *Zamburug'larning organik olamdagi ta'siri, Zamburug'larning tarqalishi va oziqlanishi, Mevatana, Zamburug'larning ko'payishi, Zamburug'larning tabiatdagi o'rni, Achitqi va Penitsill zamburug'lari*

### Zamburug'lar haqida

Zamburug'lar tayyor oziq moddalar bilan oziqlanadigan, getratrof organizimlardir. Ular tashqi ko'rinishi, tuzilishi, yashash muhiti, fiziologik xususiyatlari bilan xilma-xil bo'ladi. Zamburug'larning vegetative tanasi mitselli deb ataladi. Mitselliysi ingichka ipga o'xshash giflardan hosil bo'ladi. Mitselli orqali zamburug'lar suv va unda erigan mineral moddalar so'rib oladi. Ba'zi bir oliy zamburug'larning mitsellisi ko'ndalang to'siqlari orqali alohida hujayralarga bo'lingan. Tuban zamburug'larda esa to'siqlar rivojlanmagan. Shuning uchun ham tuban zamburug'larda har bitta gif juda kuchli tarmoqlangan va ular ko'p yadroli gigant hujayralardan tashkil topgan. Odatda, zamburug' tanasining faqat bir kichkina qismi ko'zga tashlanadi. Mitselliysining asosiy qismi substrat ichida joylashadi. Zamburug'lar organik olamning alohida guruhi hisoblanib, tuzilishi va hayotiy faoliyatiga ko'ra ham o'simliklarga, ham havonlarga o'xshab ketadi. Zamburug'larning o'simliklardan farqi shundaki, ular o'simliklar singari erkin harakat qilolmaydi. Zamburug'larning yashashi uchun ozuqa, harorat va namlik yetarli bo'lishi kerak. Zamburug'lar asosan quruqlikda tarqalgan. Zamburug'larning hozirgi kunda xo'jalikda ham, tabiatda ham ahamiyati juda katta. Tibbiyotdagi ahamiyati ham inson hayoti uchun juda muhim rol o'ynaydi. Tibbiyotda antibiotik dorilar tayyorlashda, polivitaminlar olishda zamburug'lardan keng ko'lamda foydalaniladi. Zamburug'lar orasida ziyon keltiruvchi zamburug'lar ham uchraydi. Bir qancha saprofit, parazit zamburug'lar odam, hayvon va o'simliklarda har xil kasalliklarni keltirishi ham mumkin.

### Zamburug'larning tarqalishi va oziqlanishi

Zamburug'lar barcha geografik zonalarda tarqalgan. Ular o'rmonda, dala, tuproq, suvda, uylarning devorlarida va odam, hayvon o'simliklar organizimida rivojlanadi. Zamburug'lar sporadan rivojlanishi va tuzilishi jihatidan guruhiga qarab turlicha ko'payadi. Zamburug'lar mitselliysi obektning ustida

rivojlanishi yoki usib ichiga kirishi mumkin. Yuksak zamburug'larning gifalari to'siqlar yordamida ko'p bo'laklarga bo'lingan bo'lib ,bitta yoki ikkita yadrosi bo'ladi. Hujayra devori xitin moddasi bilan qoplangan. Tuban zamburug'lar gifasi bitta shoxlangan ko'p yadroli gigant hujayralardan iborat. Hujayra devori selluloza bilan qoplangan. Oziqlanish usuliga ko'ra saprofitlar va parazitlarga bo'linadi. Saprofit zamburug'lar tayyor organik moddalar bilan oziqlanadi. Zamburug' o'simlik ildizidan organik moddalar oladi. Organik modda mitselliyning oziqlanishi va yangi Mevatana hosil qilish uchun sarflanadi. Parazit oziqlanish suvda erigan oziq moddalar bilan oziqlanishdir.

Zamburug'larning oziqlanishi

Zamburug'lar jinsiy va jinsiz yo'llar bilan ko'payadi. Jinsiy ko'payish vegetativ yoki sporalar hosil qilish orqali amalga oshadi. Vegetativ ko'payishda zamburug' mitselliysining bir bo'lagida yangi mitselli hosil bo'ladi. Zamburug'larning ko'payishi kurtaklanish orqali ham amalga oshadi. Zamburug'larning ko'payishi uch xil usulda bo'ladi.

1.GAMETAGAMIYA

2.GAMETANGIOGAMIYA

3.SOMATAGAMIYA

Zamburug'larning hayvon va o'simliklarga o'xshashlik taraflari:

Moddalar almashinuvining oxirgi mahsuloti sifatida mochevina hosil bo'ladi; Hujayra devori xitin moddasi bilan qoplangan;

Getratrof oziqlanadi, fitopigmentlar yo'q, fotosintez qilmaydi.

Zamburug'larning o'simliklarga o'xshashligi:	Oziq
moddalarni yutmaydi aksincha surib oladi;	Umri davomida
o'sadi;	Hujayrasida hujayra
devori ko'pincha sellelozali bo'ladi;	Harakat qilmaydi, sporalari
orqli;	

Zamburug'larning xo'jalikdagi va tabiatdagi o'rni

Tabiatdagi saprofit zamburug'lar katta ahamiyatga ega. Ular bakteriyalardan va organik moddalarni parchalab tuproq hosildorligini oshiradi. Chirituvchi zamburug'lar tabiatni o'simlik va hayvon qoldiqlaridan tozalaydi. Mikoriza zamburug'i o'simlik ildizi bilan simbioz hayot kechirib suv va mineral moddalarni shimib olishga yordam beradi.

Zamburug' turlari; Achitqi zamburug'

Achitqi zamburug'i bir hujayrali zamburug' bo'lib, mitselli hosil qilmaydi. Tanasi sharsimon shaklda. Achitqi zamburug'i anaerob organizmdir. Achitqilar kurtaklanish orqali ko'payadi. Achitqi zamburug'lari iliq va qandli muhitda juda tez ko'payadi. Non yopishda, non mahsulotlari tayyorlashda pivo va vino tayyorlashda keng qo'llaniladi.

O'silik parazit zamburug'lar

Zamburug'lar orasida madaniy o'simliklarda parazitlik qilib, o'simlik hujayralarini yemiradigan va kuchsizlantiradigan, halok etadigan turlari ham uchraydi. Vilt zamburug'i g'o'za va boshqa ekinlarda parazitlik qilib, so'lish kasalligini paydo

qiladi. Parazit zamburug' va Qorakuya zamburug'lari ham o'simlik va daraxt po'stloqlariga zarar yetkazadi. O'simliklarning mustahkam va yaxshi hosil berishi uchun va bu kabi kasalliklarga chalinmasligini oldini olish uchun almashlab ekish usulidan foydalanish kerak.

Penitsill zamburug'lari

Penitsill zamburug'i ko'p hujayrali mitselliya ega bo'lib, mitselliysi ko'ndalang to'siqlar yordamida alohidalashgan ya'ni alohida hujayralarga bo'lingan. Sporalari maxsus spora boshqichalaridan yetiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'.Pratov, F.O'.Azimova. BOTANIKA 6-sinf uchun darslik
2. A.To'xtayev. BIOLOGIYA 9-sinf uchun darslik
3. I.Hamdorov „BOTANIKA ASOSLARI”
4. O.Mavlonov „BIOLOGIYA”
5. R.Babayeva „BOTANIKA”